



## O'SPIRINLARDA KASB TANLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI.

*Andijon viloyati Baliqchi tumani*

*3-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Amaliyotchi psixolog*

*Majidova Asilaxon Oxunjonovna*

Yaxshi kasb-hunar egasi bo'lish insonning eng katta ziynatidir. U farog'atga, kamolotga va izzat ikromga o'z kasb-hunari tufayli ega bo'ladi. O'z farzandlarini ilmli, hunarli qilib voyaga yetkazish millatimizga xos xislat bo'lib, ota-bobolarimiz farzandlarining savodini chiqarish, hunarli qilish uchun eng yaxshi muallimlarga, usta hunarmandlarga shogirdlikka bergenlar, boshqa shahar va yurtlarga bilim olish uchun yuborganlar.

Ming-minglab kasblar bor, lekin muayyan mehnat turiga individual moyillik bilan unga bo'lgan qobiliyat va uning ijtimoiy ahamiyatiga yuqori baho berish (psixologlar buni kasbning sotsial mavqeい deb ataydilar) qo'yilgandagi kasb kishiga ma'naviy qoniqish berishini o'spirinlarning ko'pi anglab yetadilar.

Inson tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy –iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydigan omillardir. Shunday yoshlarimiz borki, umumiyo o'rta ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi.



Professional kasb-hunar maktablari esa o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatini, bilim va ko‘nikmalarini chuqr rivojlantirish, ularga tanlangan yo‘nalishlari bo‘yicha bir necha zamonaviy kasbni egallash imkoniyatini beradi.

Kasb-hunar maktablariga o‘quvchilarni qabul qilishdan boshlab o‘quv jarayonining tashkil etilishi, mazmuni bilan mezoni va pirovard natijasida bir necha kasb-hunar egasi – usta, kichik mutaxassis bo‘lib o‘qishni tamomlashdan iborat. O‘quv jarayonini jahon talablariga mos keluvchi o‘quv ta’lim standartlari, ya’ni zamon talablariga javob beruvchi, istiqbol va kelajakni ko‘zlab ishlab chiqilgan o‘quv dasturi va rejalar asosida tashkil etilmoqda, zamonaviy tipda qayta ta’mirlanib, zamonaviy asbob-uskunalar, o‘quv uslubiy qurollar, ko‘rgazma vositalari, axborot texnologiyalari, kompyuterlar bilan jixozlanganligi bilan avvalgi bilim maskanlaridan tubdan farq qiladi.

Kasb-hunar maktablarida kasb-hunar turining ko‘pligi bugungi kun talablariga, iqtisodiy islohatlar ehtiyojiga javob berishi alohida ahamiyatlidir. Kasb-hunar maktablarida ishchi kadrlar emas, balki keng ixtisoslikdagi kichik mutaxassislar tayyorlanadi. Yana bir afzalligi –kasb-hunar kollejlarida har bir xududning o‘ziga xos jo‘g‘rofiy va demokratik shart-sharoitlari va mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj hisobga olinadi.

Shuningdek mutaxassislar tayyorlash o‘quv jarayonida ikki tomonlama (dual) tizim asosida amalga oshirilmoqda, o‘quvchilarga beriladigan ishlab chiqarish ta’limi o‘quv muassasasining zamonaviy jixozlangan ustaxonasida, korxonalarda ishlab chiqarish amaliyoti bilan uzviy bog‘liq holda olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda umumiy bilim asoslarini berish yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni har tomonlama rivojlantirish va zamon talablariga javob beruvchi mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun berilayotgan



ta’lim milliy qadriyatlarimizga hurmat, mustaqil davlatimizga sodiqlik va iftixor tuyg‘ulari ruhidagi tarbiya bilan mushtaraklikda amalga oshirilmoqda.

O‘spirinlar uchun xarakterli xususiyat –kasblarga keskin tanlab munosabatda bo‘lishdir. Ularning ko‘plari ayrim kasblarni yuqori baholaydilar, o‘quvchilarining ko‘z o‘ngida bu kasblarning ijtimoiy mavqeい juda ulug‘dir, boshqa kasblarning ijtimoiy mavqeи nihoyatda past. Lekin muammo shundaki, ko‘pgina kasblarning bunday mavqeligi jamiyat uchun, mamlakatimiz xalq xo‘jaligi uchun real ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Professional niyatlarning barqarorligini o‘rganish yuzasidan N.I.Krilov o‘tkazgan tekshirish shuni ko‘rsatadiki, hatto o‘z niyatlarini amalga oshirib, oliv o‘quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko‘plari o‘zlarining kim bo‘lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar . Bunga sabab yoshlarni mazkur oliv o‘quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan bu kasbning haqiqiy, amaliy mazmuni o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir. Ko‘plari mazkur oliv o‘quv yurtiga tasodifan kirgan bo‘ladilar “otam ham vrach bo‘lgani sababli kirdim”, o‘rtog‘im kirayotgani sababli kirdim”, “chunki bu yerga kirish osonroq bo‘ldi” va xokazo.

Axir o‘zining professional taqdirini tasodifan hal qilish murakkab kechinmalarga, tanlagan kasbi sohasida ikkilanishlarga, og‘ir ichki ziddiyatlarga olib kelishi mumkin va olib keladi. Bu narsa yigit va qizlar uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi.

O‘spirin yoshlar oliv ma’lumot olishga, o‘qishni oliv o‘quv yurtida davom ettirishga bir tomonlama yondoshishlarini aytib o‘tish kerak. Litsey va kollej o‘quvchilarining 80% idan ko‘prog‘i oliv ma’lumot olishga intilamiz, deb qatiy qaror qilgan, faqat ozchilik qismigina o‘qishdan keyin ishlab chiqarishga bormoqchi ekanliklarini aytishgan (oliv o‘quv yurtlariga bitta o‘ringa 15-20 ta abiturient xujjat topshiradi). Biroq ularning ma’lum



qismigina oliv o‘quv yurtiga real kira olishiga umid qilishi mumkin. Qolganlari ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritishlari kerak. Yoshlarning oliv ma’lumot olishga intilishining yaxshi tomonlari bo‘lishi bilan birga buning salbiy oqibatlari ham bor. Birinchidan o‘quvchilar o‘zlari tanlagan oliv o‘quv yurtiga kirish uchun topshiradigan 3-4 fanni chuqur o‘rganishni mo‘ljallaydilar xolos. Boshqa fanlarni o‘rganishga vaqt sarflash oqilona va samarali ish deb hisoblanmaydi. Ikkinchidan, tanlagan fanlarni o‘rganish ham M.G.Davletshin to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tganidek, test talabalariga mos keladigan pragmatik xarakterga ega bo‘ladi, ya’ni asosiy e’tibor test savollariga to‘g‘ri javob topishga qaratiladi.

Oliy o‘quv yurtiga kirishga bir tomonlama psixologik ustanovka o‘z niyatlarini amalga oshira olmagan bitiruvchilarga salbiy ta’sir qiladi. Muvaffaqiyatsizlik ularga og‘ir ta’sir ko‘rsatadi, ko‘pincha bu holni o‘z umidlarining barbod bo‘lishi deb qaraydilar. O‘quvchilar: agar oliv o‘quv yurtiga bu yil kira olmasam, bir ikki yil kutaman, tayyorgarlik ko‘raman deb o‘ylaydilar.

Bularning hammasiga bizning tarbiyaviy ishlarimizning bir muncha bo‘sh olib borilayotganligi sabab bo‘lmoqda, biz yigit va qizlarga oddiy ishlab chiqarish kasblariga muhabbatni singdirish, bu kasblarning ijtimoiy mavqeini oshirishga diqqat-e’tiborni kuchaytirishimiz zarur. Astoydil ish olib borish, bu kasblarni qat’iyat bilan mohirona targ‘ib qilish, ularning yuksak ijtimoiy beradigan taraqqiyot istiqbollarini ko‘rsatishimiz zarur. Mamlakatimizda bozor iqtisodi sharoitida xususiy tadbirkorlikning katta ahamiyatga ega ekanligi, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlar va sharoitlar yaratib berilganligi, unumli mehnat sohasida ishlayotgan kishilar qanchalik hurmat –ehtiromga sazavor ekanligini ishonarli tarzda ko‘rsatib berish, hatto bunday kishilar bir muncha yuqori moddiy



ta'minotga ega ekanliklarini ta'kidlash ham kerak. O'spirin yoshlar bu kasblarni jon deb tanlashlariga erishmoq zarur, agar yigit va qizlar ishlasalar ham, majburan, "yaxshi kasb topilmaganligidan", o'z xohlamasliklarini qiyinchiliklar bilan yengib ishlar ekanlar, bu hol bizni qoniqtira olmaydi.

O'spirinlarda kasb tanlash nimaning ta'siri ostida ro'y beradi? Bunday tanlashning motivlari nima?

Sotsiologik tadqiqotlar o'spirinlarda o'zlarining kelajakdagi kasblariga qiziqishni tarbiyalashda o'quv yurti va o'qituvchilar ma'lum darajada rol o'ynashlarini ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, so'rab chiqilgan litsey va kollej o'quvchilarining 40-50% kelajakdagi kasbini tanlashga biror o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishlari sabab bo'lganini aytadi. Ko'pgina o'quvchilar xalq ho'jaligi uchun zarur bo'lgan kasblarni tanlaydilar. Bunga Vatanga foyda keltirish istagini sabab qilib ko'rsatadilar, lekin bu kasblarni o'zlarining individual xususiyatlariga, qobiliyatlariga muvofiq kelishini hisobga olmaydilar. O'quvchilarning ko'pchilik qismi kasb tanlashga motiv qilib o'z qobiliyatlarini ko'rsatadilar. (qobiliyatları haqida o'zlashtirishlari, materialni oson egallashlari, mактабдан tashqari mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli borishi va hokazolarga qarab fikr yuritadilar) Ko'p o'quvchilar oilaviy an'analar mavjudligini (sof tashqi sabab) moddiy – maishiy ta'minganlik sababini, do'stlari va o'rtoqlaridan namuna olganligini motiv qilib ko'rsatib o'tadilar. Ayrim hollarda ish joyi yoki oliy o'quv yurtining uyga yaqinligi, "bu yerga kirishning osonligi" motiv bo'lgan. Psixologik tadqiqotlar bitiruvchilar kasb tanlash vaqtida yo'l qo'yadigan tipik xatolarni aniqlab berdi, bu xatolar: 1) biror kasbning "mavqeli ekanligiga" baho berishdagi bid'atlar (o'spirin yigitlar xaydovchilik, bog'bonlik, chorvadorlikni emas balki bankda kassir, AYoQSh da ishchi, mehmonxonalarda ofitsiant bo'lib ishlashni afzal ko'radilar) 2) Kasbga uzoq



va noaniq tasavurga muvofiq baho berish, (ko‘pincha kasbni o‘quv fani bilan bir narsaga o‘xshatadilar); 3) biror kasb egasi bo‘lgan kishiga nisbatan ijobjiy yoki salbiy munosabatda bo‘lishni tegishli kasbga ko‘chirish; 4) kasbning oddiy kundalik tomonini nazar pisand qilmay, uning tashqi tomonga mahliyo bo‘lish; 5) o‘rtoqlarining ta’siri ostida “kompaniya” uchun kasb tanlash.

Ko‘pdan ko‘p tadqiqot natijalariga asoslanib o‘spirin yoshlarning kasb tanlashga to‘la to‘kis tayyorligi to‘g‘risida gapirib bo‘lmaydi, deb xulosa chiqarishga to‘g‘ri keladi, chunki birinchidan o‘spirinlar ko‘p kasblar to‘g‘risida aniq tasavurga ega bo‘limganliklari sababli ularni to‘g‘ri tanlab olmaydilar. Mazkur kasb odamning sifatlariga qanday talablar qo‘yishni ham bilmaydilar. Ikkinchidan ular o‘zlarining biror kasbga layoqatli ekanliklarini hamma vaqt ham ob’ektiv aniqlay olmaydilar. Reaksiyaning tezligi va aniqligi, harakatlarning mofiqlashganligi, sezish xususiyatlari, nerv jarayonligining harakatchanligi va hokazo xarakteristikalar odatda notanish bo‘ladi, chunki ko‘pincha bular maxsus tadqiqotlarni talab qiladi.

Demak, o‘qituvchilar, ayniqsa psixolog o‘spirinlarda kasb tanlashdan iborat hayotiy muammo albatta paydo bo‘lishini, davlatning, jamiyatning manfaatlarini va ehtiyojlarini shaxsiy moyillik va qobiliyatlarni hisobga olgan holda ularga kasbni ancha maqsadga muvofiq holda tanlashda yordam berishi zarur.

O‘spirinlarni kasb tanlashga yo‘llash muammosini maxsus o‘quv yurtlari jamoat tashkilotlari, korxona va muassasalar, ishga joylashtirish organlari bilan birgalikda hal etishlari maqsadga muvofiqdir. Avvalo o‘quvchilarga kasblarni yaxshi bilib olishda yordam berish, buning uchun kasblar haqida juda xilma-xil axborot manbalaridan foydalanish, (“kam mavqeli” kasblarni ham targ‘ib qilish) turli kasb egalari bilan uchrashuvlar, korxonalar va oliy o‘quv



yurtlariga ekskursiyalar, ochiq eshiklar kuni, kitob ko'rgazmalari, kutubxonalarda ma'lumotlar tizimi va hokazolar tashkil etish lozim.

O'spirinlar kasbni ongli ravishda tanlash vaqtida, birinchidan xalq xo'jaligining u yoki bu mehnat turiga bo'lgan ehtiyojini, va ikkinchidan, o'z moyilligi va qobiliyatlarini hisobga olish, o'z shaxsiy sifatlari u yoki bu kasbga qo'yadigan talablarga qanchalik muvofiq kelishini, bu jihatdan to'g'ri kelmaydigan xususiyatlar (xususan, o'z asab tizimi xususiyatlari, analizatorlar xarakteristikasi, ko'rish va eshitish analizatorlari, emotsional – irodaviy sohalar va hokazolar) bor yo'qligini hisobga olish zarurligini tushunishlari lozim.

Kasb – hunar maktablari o'spirinlarining professional qobiliyatları va professional layoqati to'g'risida xulosa chiqarib berish imkoniyatiga ega emas, lekin o'qituvchilar va psixologlar ularga o'z qobiliyatları, xavaslari qiziqishlari, bilimi, malaka va ko'nikmalariga, bitiruvchilarning xarakteriga, odamlar bilan muomalada bo'la olishiga, jismoniy imkoniyatlariga baho berishda yordam ko'rsata oladilar.